



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 15-avgust, shanba,
71 (24.251)-son

**O'zbek xalq
maqoli**

Tayog'i
yo'g'on birni
urar,
So'zi
yo'g'on mingni
urar

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



info@zarnews.uz

MUSTAQILLIK

35



**YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB,
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!**



Viloyat hokimining QARORI

Samarqand viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjeti xarajatlar qismiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida

Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2026-yil 6-iyuldagi (01/01.2-32/468-son) murojaati, viloyat hokimi birinchi o'rinbosari Sh.Buranovning 2026-yil 15-iyuldagi (483/01-30-son) bildirgisi hamda O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 147-moddasini inobatga olib, **QAROR QILAMAN:**

- Viloyat hokimi birinchi o'rinbosari Sh.Buranov hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining Samarqand viloyatining 2026-yil mahalliy budjeti xarajatlar qismiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi takliflari ma'qullansin.
- Quyidagilar:
Samarqand viloyati mahalliy budjetining

- 2026-yilda bir hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchi uchun ajratilgan budjet mablag'larini boshqa hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchiga o'tkazish bo'yicha o'zgartirishlar 1-ilovaga muvofiq;
- 2026-yil uchun Samarqand viloyati, shahar va tumanlar mahalliy budjet parametrlari xarajatlar qismiga kiritiladigan o'zgartirishlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
- Shahar va tuman hokimlari 3 ish kuni ichida ushbu qaror bilan kiritilgan o'zgartirishlardan kelib chiqib, mahalliy budjetlariga belgilangan tartibda o'zgartirish kiritish bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilinishini ta'minlasin.
- Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqar-

masi (B.Mirzayev) viloyat mahalliy budjetining 2026-yilgi xarajatlari rejalariga o'rnatilgan tartibda tegishli o'zgartirish kiritilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o'rinbosari Sh.Buranov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi v.v.b. **SH.BURANOV.**

2026-yil 10-avgust
(303-7-0-Q/26)

(Qaror ilovalari bilan ushbu QR kod orqali tanishishingiz mumkin)



MUKOFOTLAR MUBORAK!

Prezidentimizning shu yil 13-avgust kuni qabul qilingan "Tadbirkorlar kuni munosabati bilan soha vakillaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, yurtimizning faol ishbilarmonlari davlat mukofotlari bilan taqdirlandi.

Mukofotlanganlar orasida viloyatimizdan quyidagilar bor:

**"O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA
XIZMAT KO'RSATGAN TADBIRKOR"**
faxriy unvoni bilan

Boltayev Odiljon Olimjonovich - Samarqand shahridagi "Azia metall prof" mas'uliyati cheklangan jamiyatining rivojlantirish va investitsiya masalalari bo'yicha direktori.

"FIDOKORONA XIZMATLARI UCHUN"
ordeni bilan

Kazimov Botir Xaydarovich - Toyloq tumanidagi "Bog'izog'on" mas'uliyati cheklangan jamiyati direktori.

"MARDLIK" ordeni bilan

Urunboyev Ma'ruf Husan o'g'li - Narpay tumanidagi "Narpay strategy up" mas'uliyati cheklangan jamiyati direktori.

"KELAJAK BUNYODKORI" medali bilan

Soliyev Muxammadxon Bobirshoyevich - Samarqand shahridagi "Innovatsion maskan" nodavlat ta'lim muassasasi direktori.

"SHUHRAT" medali bilan

Pan Yevgeniya Leonidovna - Ishtixon tumanidagi "Samarkand stone trade corporation" mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischi.

Shuningdek, davlatimiz rahbarining farmoyishiga ko'ra, quyidagi samarqandliklar "Faol tadbirkor" ko'krak nishoni bilan taqdirlangandi:

Axmedjonov Farrux A'zamovich - Samarqand shahridagi "Renessans dizayn" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari.

Begimov Ulugbek Najimovich - Paxtachi tumanidagi "Alisher" xususiy korxonasi direktori.

Gadoyev Begimqul O'Imasovich - Urgut tumanidagi "Maxmadjon nurafshon" xususiy korxonasi direktori.

Djabborov Jaxongir Djurakulovich - Oqdaryo tumanidagi "Sam text plas" mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischi.

Jalilov Shokirjon Raupovich - Samarqand shahridagi "Mega sezon poyafzal" mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischi.

Li Yuriy Arkadevich - Samarqand shahridagi "Elxolding" ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi bosh direktori.

Raxmatov Farxod Rasulovich - Samarqand tumanidagi "Gulobod mebel" mas'uliyati cheklangan jamiyati direktori.

ДАФТАРНИНГ НАРХИ ҚАНЧА?

Умумий ўрта таълим мактабларида янги – 2026-2027 ўқув йили бошланишига ҳам санокли кунлар қолмоқда. Аини кунларда барча ота-оналар ва ўларнинг ўрнини босувчи шахслар фарзандларига ўқув жиҳозлари ва қўроллари олиб бериш билан банд. Жойларда мактаб ярмаркалари ташкил этилмоқда.



Бу соҳадаги хусусий тadbirkorларнинг бозори авжида. Айниқса, идора ашёлари савдосига ихтисослашган ишбилармонларнинг қўли қўлига, оёғи ерга тегмайди. Чунки харидорлар ўқув жиҳозларини савдолашмасдан оладилар. Ўларнинг кети эрта тонгдан кеч – қуёш ботгунига қадар узилмайди...

Ўзув дафтери мактаб ўқувчиси учун энг муҳим ўқув кўроли ҳисобланади. Ахир ҳар бир фан бўйича ўзув дафтери юритилганда. Шу боис ўзув дафтарининг савдоси анча чаққон.

Набирамга дафтар харид қилиш учун савдо дўконларини айландим. Муқовалари турли расмлар билан безатилган дафтарларни кўриб, кўзим қувонди. Аммо дафтарларнинг баҳоси кўнгилмин хижил қилди. Самарқанд шаҳар Мир Саид Барака кўчасида жойлашган йирик савдо мажмуасида ўзимизда ишлаб чиқарилган 1 дона варақли йўл-йўл ўзув дафтарининг нархи **390 сўм**, катакисиники икки баробар қиммат, 18 варақлисининг баҳоси 6990 сўм, озгина варақ қўшилган дафтарларнинг қиймати **14000 сўмдан 20000 сўмгача** қилиб белгиланган. Россия Федерациясида ишлаб чиқарилган география фани учун мўлжалланган дафтарининг баҳоси **40990 сўм** эканлиги қайд этилган.

Самарқанд шаҳри марказида фаолият юритаётган собиқ «Ўзиктоб» дўкони ва Почта кўчасидаги бошқа қатор идора ашёлари савдоси билан шуғулланувчи тadbirkorлик шакллариининг барчасида дафтарнинг нархи **шу йил июнь ойидагига қараганда икки марта кўтарилган**.

Тўғри, тadbirkor харидорларнинг талабларини инобатга олган ҳолда сотувдаги мол-маҳсулотларга баҳосини қўяди. Аини пайтда дафтар сўраб келувчилар сони бир неча ўн баробарга ошган. Бу жаҳжи болажонлар учун мўлжалланган дафтарнинг ҳам баҳосини ушбу талабга қийсан кўтариб юбориш керак, дегани эмас-ку!

Янги ўқув йили бошланиши арафасида ота-оналар фарзандларига ўқув қўроллари ва жиҳозларини харид қилишади, албатта. Баъзи оилаларда 4-5 нафардан бола мактабга боришидан келиб чиқсак, ота-оналар биргина дафтар олишга каттагина сармоя сарфлашларига тўғри келади. Фарзандни мактабга тайёрлаш учун қанчадан-қанча кийим-кечак (мактаб формаси, спорт формаси) ва бошқа ўқув қўроллариини сотиб олишга тўғри келади. Шу боис тadbirkorларимиз дафтарларнинг нархини адолатли ва ҳамма учун қўлай қилиб қўйсалар, яхши бўларди.

Йўлдош СУЙОНОВ,
меҳнат фахрийси.

Aholiga suyuultirilgan gaz ballonlarini yetkazib berish nega kechikyapti?

Keyingi vaqtlarda aholi xonadonlariga suyuultirilgan gaz ballonlarini yetkazib berish muddati 45 kundan 60–70 kungacha cho'zilmogda. Xo'sh, tasdiqlangan grafik asosida aholiga suyuultirilgan gaz ballonlarini yetkazib berish muddati nega kechikmogda, bunga qanday omillar sabab bo'lyapti?

– Aholiga suyuultirilgan gaz yetkazib berishda kechikishlar kuzatilayotgani rost va buning sabablari bor, – deydi «Hududgaz Samarqand» gaz ta'minoti filialining mahalla iste'molchilarini suyuultirilgan gaz bilan ta'minlash bo'limi boshlig'i Ma'ruf Pardayev. – Shu yilning aprel-iyul oylarida «LUKOYL O'zbekiston Opereyting Kompaniya» tomonidan aholi uchun suyuultirilgan gaz yetkazib berish vaqtincha to'xtatilgani hamda ishlab chiqarish zavodlarida rejali ta'mirlash ishlari olib borilgani sababli Samarqand viloyatiga oyiga o'rtaacha 4900 tonna suyuultirilgan gaz ajratildi. Shu bois iste'molchilarga suyuultirilgan gaz yetkazib berish davriyligi 65–67 kunni tashkil etmogda.

Ishlab chiqarish zavodlari to'liq quvvatda ishlay boshlagandan so'ng oylik ajratma **7500-7600 tonnaga** yetkaziladi. Bu esa suyuultirilgan gaz yetkazib berish davriyligini 40–45 kungacha qisqartirish imkonini beradi. **Avvgust oyidan** boshlab Samarqand viloyati uchun oylik suyuultirilgan gaz fondi **6700 tonnaga oshirildi**.

Ma'lum qilinishicha, gaz ta'minoti barqarorlashishi bilan aholiga suyuultirilgan gaz ballonlarini yetkazib berish tasdiqlangan grafik asosida bosqichma-bosqich yo'lga qo'yiladi. Bu haqda barcha shahar va tumanlardagi mahalla fuqarolar yig'inlarining telegram guruhlari orqali aholiga ma'lumot berib borilmogda.

Shuningdek, aholidan gaz ballonlarini navbatdan tashqari olishga urinish yoki turli vositachilar orqali murojaat qilishdan tiyilib, yetkazib berish grafigiga amal qilish so'ralmogda. Agar grafik bo'yicha yetkazib berish muddati buzilsa yoki boshqa muammolar yuzaga kelsa, iste'molchilar hududiy gaz ta'minoti bo'limlariga murojaat qilishlari mumkin.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.



Metall materiallariga talab har doim yuqori bo'lgan. Mahsulotni doimiy import qilish esa davlat uchun juda katta mablag' sarfiga olib keladi. Uni o'zimizda tayyorlashni yo'lga qo'yish importni kamaytiradi, ichki bozorni qondiradi, qolaversa eksport imkoniyatlarini ham oshiradi.

Shu maqsadda 2018-yilda Xi-toyning "URUMQI TONGYALE INTERNATIONAL TRADE" kompaniyasidan 12,5 million dollarlik zamonaviy asbob-uskunalar olib kelib, ichki bozorda import o'rnini bosuvchi metall tunuka va profililar ishlab chiqarishni boshladik. Dastlab 2 gektar maydonda 20 nafar ishchi bilan faoliyat boshlagandik. Hozir korxona maydoni 102 gektarga, ishchilar soni 2 ming nafarga yetdi. O'tgan vaqt ichida 13 ta loyihani amalga oshirib, 15 turdagi rux va polimer qoplamali list, qayta ishlangan metall, bazalt, sendvich-panel, profil, quvur kabi temir mahsulotlari ishlab

METALL – og'ir sanoatning yuragi



chiqaryapmiz.

Yurtimizda temir qazib olish sanoati hali rivojlanmaganligi uchun temirni xorijdan xomashyo sifatida import qilamiz. Shu bois, Bekobod metallurgiya kombinatida Preziden-

timiz bilan uchrashuvda metallurgiya sanoatini yanada rivojlantirish, tannarxini tushirish va xomashyo bazasini yaratish uchun temir konlarini o'zlashtirish zarurati borligini aytdim. Temir qazib olish konlari

ochilsa, biz temir ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishimiz borasida takliflar bildirdim. Hozir bu bo'yicha loyiha tayyorlanaypti va geologik qidiruv ishlari olib borilmogda. Bu mamlakatimiz uchun ham, iqtisodiyotimiz uchun ham katta yangilik bo'ladi.

O'tgan yil 13 davlatga 130 million dollarlik mahsulot eksport qildik. Bu yil ko'rsatkichni uch barobar oshirishni rejalashtirganimiz.

Mehnatlarimiz e'tirof etilib, 2023-yilda "Faol tadbirkor" ko'krak nishoni bilan taqdirlangandim. Bu yilgi tadbirkorlar kuni arafasida davlatimiz rahbari tomonidan "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan tadbirkor" faxriy unvoni berilgani korxonamiz faoliyatiga yuksak baho bo'ldi. Bu boradagi ishlarni yanada rivojlantirib, temir konlarni o'zlashtirish, metall mahsulotlari sifatini oshirish va tannarxini arzonlashtirib, ichki bozor ehtiyojini to'la qondirish va eksport hajmini oshirishni rejalashtirganimiz.

Odiljon BOLTAYEV,
Samarqand shahridagi "Azia metall prof" MChJ rahbari,
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan tadbirkor.



Yilning birinchi yarmida viloyatimizga 3,4 million nafardan ortiq xorijlik va 4,7 million nafar mahalliy sayyoh tashrif buyurdi. Turizm xizmatlari eksporti esa 578,1 million AQSh dollarini tashkil etdi. Bu ko‘rsatkichlar o‘tgan yilga nisbatan ikki baravarga ko‘p degani. Shu bilan birga, yilning o‘tgan davrida viloyatimizda 65 ta yangi joylashtirish vositasi tashkil etilib, ularning umumiy sig‘imi 1474 o‘rinni tashkil qildi. Natijada viloyatdagi joylashtirish vositalari soni 929 taga, ulardagi o‘rinlar esa 23,3 mingtaga yetdi.

Sayyohlar

SAMARQANDNI TANLAYAPTI

Turizm xizmatlari turini kengaytirish bo‘yicha yangi loyihalar amalga oshirilmog‘da. Xususan, Samarqandda ilk bor vertolyotda sayr qilish xizmati yo‘lga qo‘yildi. Endi sayyohlar Samarqand xalqaro turizm markazi hamda Zarafshon milliy tabiat bog‘i uzra havoda ham sayohat qilishi mumkin.

Aprel oyidan Samarqand shahridagi “Siyob dehqon bo‘zori”i tunda ham faoliyat ko‘rsata boshladi. Samarqand xalqaro turizm markazi hududida uzunligi 1700 metr bo‘lgan osma dor yo‘lining ishga tushirilishi hamda Samarqand tumanidagi Yangijoy, Toyloqdagi Bog‘izog‘on, Qo‘shrabotdagi Pangat mahallalariga “Turizm qishlog‘i” maqomining berilishi hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish hamda Samarqandning zamonaviy turistik markaz sifatidagi nufuzini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Misol uchun, Yangijoy mahallasidagi Ogbo‘yra qishlog‘iga «Turizm qishlog‘i» maqomi berilishi hududning ijtimoiiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim omil bo‘ladi. Bu yerda 14 ta uy mehmonxona, 30 ga yaqin oilaviy dam olish maskani, cho‘milish havzalari, ot va mototsikllarda sayr xizmatlari hamda agro va ekoturizm ob‘ektlari tashkil etildi. Amalgacha oshirilgan mazkur loyihalar natijasiga qariyb 200 ta yangi ish o‘rni yaratildi.

Bog‘izog‘on mahallasida esa 20 ta oilaviy mehmon uyi va o‘nga yaqin turizm xizmat ko‘rsatish ob‘ektlari tashkil etildi. Bu yerda bir vaqtning o‘zida 100 nafargacha sayyohga xizmat ko‘rsatish mumkin.

Qo‘shrabotdagi Pangat qishlog‘i viloyatimizning eng olish, shu bilan birga, betakror tabiati, beqiyos tarixi bilan ko‘pchilikni lol qoldirib kelgan hudud. Bu yerda hozir 30 dan ziyod dam olish maskanlari va xizmat ko‘rsatish vositalari ochilgan. Aholi va sayyohlarga qulay sharoit yaratish maqsadida yo‘llarga asfalt yotqizilgan, yangi ko‘priklar va suv inshooti barpo etilgan.

Yarim yillikning eng muhim voqealaridan biri Paygari tumanida qayta bunyod etilgan Imom Buxoriy yodgorlik majmuasining ochilishi bo‘ladi. Majmua bir kunda 65 ming nafargacha ziyoratchi va sayyohni qabul qilish imkoniyatiga ega. Aprel-iyun oylarining o‘zida bu yerga 2,8 million nafar ziyoratchi tashrif buyurgani mazkur maskanning nafaqat mamlakatimiz, balki xalqaro ziyorat turizmidagi ham muhim o‘rin tutayotganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, Malayziya, Indoneziya,

Turkiya, Fors ko‘rfazi davlatlari hamda Rossiyaning musulmon aholisi istiqomat qiladigan hududlaridan keluvchilar soni oshib bormoqda.

Ayni paytda viloyatda turizm infratuzilmasini yanada rivojlantirishga qaratilgan qator yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Kattaqo‘rg‘on suv ombori hamda Oqdaryo suv ombori atrofida to‘rt faslda ham faoliyat yuritadigan turistik majmualarni tashkil etish bo‘yicha master-rejalar ishlab chiqildi. Urgut, Samarqand, Kattaqo‘rg‘on, Bulung‘ur va boshqa tumanlarda ekoturizm, ziyorat turizmi hamda tarixiy ob‘ektlar atrofida servis infratuzilmasini rivojlantirish ishlari davom etyapti. Shuningdek, Mahdumi A‘zam hamda Imom Moturidiy yodgorlik majmualarida keng ko‘lamli rekonstruksiya ishlari olib borilmoqda. Urgut tumanidagi Omonoq‘ton va G‘ijduvon mahallalarida, Bulung‘ur tumanidagi Xo‘ja Hofiz Merosiy ziyoratgohi hamda Sheroz qal‘asi atrofida sayyohlar uchun qulay muhit yaratishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Yilning ikkinchi yarmi uchun ham katta rejalar belgilangan. Yil yakuniga qadar viloyatimizga 6 million nafar xorijiy va 8 million nafar mahalliy sayyohni jalb qilish, turizm xizmatlari eksportini 800 million AQSh dollariga yetkazish maqsad qilingan. Qo‘shimcha 141 ta joylashtirish vositasi tashkil etish, yana uchta mahallaga “Turizm qishlog‘i” maqomini berish, xalqaro festivallari o‘tkazish, Samarqand shahrida yangi turizm ko‘chalarini tashkil etish rejalashtirilgan.

Jo‘rabek SUYUNOV,
viloyat turizm boshqarmasi
boshlig‘i o‘rinbosari.



So‘nggi yillarda O‘zbekiston aholisi o‘rtasida xorijga sayohat qilish trendi keskin o‘sib bormoqda. Har yili yoz mavsumi boshlanishi bilan ijtimoiy tarmoqlarda bir xil bahs-munozaralar urchiydi: “Nega Toshkent yoki Zomina borishdan ko‘ra Turkiya yoki Misrga borish arzonroq?”, “Bizda qachon xizmat ko‘rsatish sifati narxga mos bo‘ladi?”
Bu shunchaki odamlarning inijligi emas, balki jiddiy iqtisodiy va ijtimoiy fenomendir. Xo‘sh, aholi nega xorijni tanlayapti? Ichki turizmndagi tizimli muammolar nimalardan iborat va ularni qanday hal etish mumkin?

GLOBAL TREND VA O‘ZIMIZNING VOQELIK
Davlat statistika agentligi va turizm sohasi tahlilchilarining ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston fuqarolarining xorijga sayohat qilish geografiyasi yildan-yilga kengayib, oqim hajmi karrasiga oshmoqda. Agar ilgari chet elga asosan yuqori daromadli qatlam vakillari borgan bo‘lsa, bugungi kunda o‘rta qatlam ham BAA, Turkiya, Misr, Vetnam va Tailand kabi davlatlarda hordiq chiqarishni odatiy hol, deb bilmoqda.

Iqtisodiy tahlilchi Shahzod Olimjonov fikricha, “Bugungi iste‘molchi juda aqlli. U o‘z pulining har bir so‘miga yarasha sifat talab qiladi. Toshkentdan Antalyaga 7 kunlik tayyor tur (aviachipta, mehmonxona, 3 mahal ovqat, transfer va sug‘urta) ba‘zan Toshkent viloyatidagi yoki Chorvoqdagi nufuzli dam olish maskanida 5 kun oilaviy yashashdan arzonroqqa tushmoqda. Bunday sharoitda iste‘molchining chet elni tanlashi tabiiy iqtisodiy tanlovdir”.

Darhaqiqat, O‘zbekistondagi ko‘plab dam olish maskanlari, mehmonxonalar va sanatoriylarda narxlar ko‘rsatilayotgan xizmat darajasiga umuman mos kelmaydi. Misol uchun, bir sutkalik turar joy narxi o‘rtacha 200 mingdan bir necha million so‘mgacha. Bu narx ichiga ko‘pincha faqat nonushta kiradi (hamma vaqt ham emas).

Ikkinchidan, O‘zbekistonda dengizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyati bo‘lmagan, ikkita davlat orqali chiqiladigan (doubly landlocked) noyob geografik hududda joylashgan. Issiq yoz oylarida aholining dengiz sohiliga intilishi tabiiy fiziologik va psixologik ehtiyojdir. Bizdagi ko‘llar (Chorvoq, Aydarko‘l, To‘dako‘l) esa maishiy va infratuzilmaviy jihatdan rivojlangan xorijiy kurortlar bilan raqobatlasha olmaydi.

Mahalliy turizmning eng zaif nuqtalaridan biri - bu transport tizimi. Poytaxtdan Samarqand, Buxoro va Xivaga qatnaydigan “Afrosiyob” tezyurar poezdiga chipta topish - haqiqiy “missiya”. Chip-talar sotuvga chiqishi bilan bir necha daqiqada tugab qoladi, bu esa chipta bozoridagi chayqovchilik va tizimli muam

mmolardan dalolat beradi. Aviatсийamizda esa ichki aviareyslar soni kam va narxlar mahalliy aholi daromadiga nisbatan ancha yuqori. Tog‘li va rekreatsiya hududlarga olib boruvchi yo‘llarning sifati, tirbandliklar va yo‘l bo‘yidagi sanitariya-gigiena shoxobchalarning (hojatxonalar, ovqatlanish joylari) qoniqsiz holati sayyohlarni bezdiradi.

MUAMMONING ILDIZI QAERDA?
To‘g‘ri, o‘zim xorijda bo‘lmaganman va hamyurtlarimizning aksarida bunday imkoniyat hali yo‘qligini ham bilaman. Ammo imkoniyat borlar nima uchun xorijda dam olishni rejalashtirishi bilan qiziqqanmisiz?

Bunda birinchi navbatda ommabop yo‘nalishlar ularni o‘ziga ohanrabodek tortishini misol qilish mumkin. Gap shundaki, Turkiya yoki Misrda xaridor “hammasi ichida” tizimi orqali pul to‘laydi va qaytib hamyonini ochish haqida o‘ylamaydi. Bolalar uchun animatorlar, akvaparklar, turli davlatlar taomlari - bar-chasi tizimli yo‘lga qo‘yilgan...

- Xorijda turizm industriyasi o‘nlab yillar davomida shakllangan va u yerda juda kuchli raqobat bor, - deydi xalqaro turoperator rahbari Umid Rahimov. - Masalan, Antalyada yuzlab besh yulduzli mehmonxonalar mijoz uchun kurashadi. Bizda esa sifati dam olish maskanlari bo‘lmagan bilan sanarli. Talab taklifdan bir necha barobar yuqori. Mahalliy tadbirkor mehmonxonasiga yuqori narx qo‘ysa ham, mavsumda baribir odam kelishini biladi. Raqobat yo‘q joyda esa sifat o‘smaydi va narx tushmaydi.

Garchi oxirgi yillarda aviatsiya bozori ochilib, loukosterlar kirib kelayotgan bo‘lsa-da, ichki yo‘nalishlarda va yaqin xorijga parvozlarda hali ham raqobat yetarli emas. Chet elga charter reyslarning ko‘payishi xorijga turlarni arzonlashtirdi, lekin mamlakat ichidagi transport hali ham qimmat va noqulay.

ICHKI TURIZMNI JOZIBADOR QILISH MUMKINMI?
Albatta, aholining xorijga intilishini majburiy taqiqlar yoki sun‘iy to‘siqlar

bilan to‘xtatib bo‘lmaydi. Buning yagona yo‘li ichki bozorda raqobatbardosh muhit yaratish va mahalliy turizm jozibadorligini oshirishdir.

Tan olish kerak, bu borada dastlabki qadamlar tashlanmoqda. Oddiy misol, tibbiy turizm qo‘shnilarimizga nisbatan bizda rivojlanayapti, degan taxminlar bor. Ammo mutlaq yetakchilikka erishganimiz yo‘q. Qolaversa, hali katta mablag‘ evaziga chet elda davolanishga ketayotganlar ham keskin kamaygani yo‘q.

Bunda tabiiyki, taklif qancha ko‘p bo‘lsa, narxlar shunchalik pasayadi va xizmat ko‘rsatuvchilar sifat ustida ishlashga majbur bo‘ladi. Buning uchun xizmat ko‘rsatuvchilarga real soliq imtiyozlarini yanada kengaytirish lozim.

Shuningdek, nima uchundir mahalliy dam olish maskanlari, davolanish muassasalarida xorij tajribasi qo‘llanilmaydi. Oqibatda iste‘molchi ovqat, ko‘ngilochar dastur, yashash va boshqa xarajatlarini alohida hisoblab yurishdan charchaydi. Yurtimizda yakka, oilaviy yoki kichik guruhlar uchun ham tayyor paketli xizmatlarni yo‘lga qo‘yish vaqti keldi, bizningcha.

To‘g‘ri, bu hukumat darajasida hal qilinadigan, lekin amalga oshirilishi shart bo‘lgan vazifa - temir yo‘l chiptalari sotuvini to‘liq raqamlashtirish va shaffoflikni ta‘minlash, yo‘nalishga qo‘shimcha xususiy poezdlarni jalb qilish. Bundan tashqari, mahalliy aviakompaniyalar o‘rtasida real raqobatni shakllantirish va parvozlarga geografiyasini kengaytirish ham faqat foyda keltirishi shubhasiz.

Aslida, o‘zbekistonliklarning hamon xorijni tanlayotgani — bu mahalliy turizm industriyasi uchun jiddiy ogohlantirish. Iste‘molchi o‘z pulini sifati xizmat, xotirjamlik va yangi taassurotlar uchun sarflashni xohlaydi. Qachonki mamlakatimizdagi ichki turizm ob‘ektlari narx va sifat mutanosibligi bo‘yicha xorijiy muqobilalar bilan raqobatlasha olsagina, oqim ichkariga buriladi. Buning uchun esa faqatgina chiroyli shiorlar emas, balki chuqur tarkibiy islohotlar, erkin raqobat va infratuzilmaga kiritiladigan yirik investitsiyalar talab etiladi.

SIZNING FIKRINGIZ QANDAY?
Keyingi ta‘tilingiz uchun O‘zbekiston hududlarini tanlagan bo‘larmidingiz yoki xorijni? Mahalliy dam olish maskanlarida sizni eng ko‘p qaysi jihat qoniqtirmaydi?

Yoqubjon MARQAYEV,
“Zarafshon” muxbiri.

Samarqand davlat texnika universiteti hamda Turkiyaning Chukurova universiteti olimlari hamkorlikda biologik chiqindilardan oqilona foydalanishga asoslangan innovatsion, o‘zini tiklovchi asfaltbeton tizimini ishlab chiqish ustida ish olib bormoqda.

- Biz shu maqsadda “Eko-asfaltbetondagi inqilob: “aqlli” funksional to‘ldirgichlarga ega biologik asosdagi o‘z-o‘zini tiklovchi qoplamalar” loyihasi ustida hamkorlikda ishlayapmiz, - deydi Samarqand davlat texnika universiteti Oliy ilm-fan maktabi dekani, professor Perviz Ahmedzade. - Loyihaning umumiy moliyaviy hajmi qariyb 3 milliard so‘m bo‘lib, 2026-yildan 2028-yilgacha bajarish ko‘zda

GO‘ZAPOYADAN

ISHLAB CHIQRILADI

tutilgan. Hozirgi vaqtda biyoyog‘ va bioko‘mir olish maqsadida paxta poyasi piroliz usuli orqali qayta ishlanmoqda.

Loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi O‘zbekiston va Turkiyaning yo‘lsozlik sohasiga ekologik xavfsiz, o‘zini o‘zi tiklovchi asfaltbetonlarni joriy etish bo‘yicha muhim qadam bo‘lishi kutilmoqda. Olingan natijalar avtomobil yo‘llarining xizmat mudatini uzaytirish, foydalanish va ta‘mirlash xarajatlari kamaytirish, qishloq xo‘jaligi chiqindilarini samarali qayta ishlash hamda yo‘l qurilishining atrof-muhitga salbiy ta‘sirini qisqartirishga xizmat qiladi.



ASFALTBETON

- Bu Samarqand davlat texnika universiteti va Chukurova universiteti o‘rtasidagi ilmiy hamkorlikning muhim bosqichi, - deydi Samarqand davlat texnika universiteti rektori, professor Chidem Turkiylmaz. - Mazkur loyiha doirasida paxta poyasi chiqindilaridan biomoy va bioko‘mir olinib, ularni asfaltbeton tarkibida qo‘llash orqali ekologik toza, uzoq muddat xizmat qiladigan va o‘z-o‘zidan tiklanish xususiyatiga ega yo‘l qoplamalarini yaratish ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston va Turkiya olimlari olib borayotgan qo‘shma tadqiqotlar kelgusida ilmiy maqolalar, patentlar, magistrlik va PhD dissertatsiyalari hamda amaliy ishlarni uchun mustahkam asos yaratadi. Eng muhimi, ushbu loyiha qishloq xo‘jaligi chiqindilaridan samarali foydalanish va zamonaviy yo‘l qurilishiga innovatsion texnologiyalarni joriy etishga xizmat qiladi. - Mazkur loyiha TÜBİTAK hamda O‘zbekiston innovatsiyalar vazirligi tomonidan birgalikda moliyalashtirilayotgan xalqaro ilmiy-tadqiqot loyihasidir, - deydi Chukurova universitetining qurilish muhandisligi kafedrasida o‘qituvchisi hamda ushbu loyiha uchun Turkiya tomonidan rahbari Burak Yigit Katanalp. - Loyiha Turkiya tomonidan Chukurova universiteti muvofiqashtiruviga amalga oshirilayotgan bo‘lsa, O‘zbekiston tomonidan yetakchi tashkilot Samarqand davlat texnika universiteti hisoblanadi.



Shuningdek, Yeditepe, Dokuz Eylul, Ege, Inonu va Mush Alparslan universitetlarining tadqiqotchilari ham loyiha jamoasi tarkibidan o‘rin olgan. Tadqiqotlarimizni Turkiya va O‘zbekistondagi laboratoriyalarda bir vaqtning o‘zida olib bormoqdamiz.

Asfaltning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan bitumning katta qismi neftdan olinadi. Neft hosil bo‘lishi millionlab yillar davom etadigan, zaxirasi cheklangan va qayta tiklanmaydigan tabiiy resursdir. Shu sababli asfalt sanoatining neftga qaramligini kamaytirish ekologik barqarorlikni ta‘minlash va tabiiy resurslardan samarali foydalanish nuqtai nazaridan nihoyatda muhimdir.

Bundan tashqari, transport yuklamalari, haroratning o‘zgarishi va atrof-muhit ta‘sir

tufayli asfalt qoplamalarida vaqt o‘tishi bilan mikro yoriqlar paydo bo‘ladi. Ushbu yoriqlar kattalashganda yo‘llarning buzilishiga va texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlarning oshishiga olib keladi. Biz ushbu loyiha doirasida mazkur ikki asosiy muammoga yechim bo‘ladigan asfalt texnologiyalarini ishlab chiqishni maqsad qilganmiz.

Ushbu texnologiya muvaffaqiyatli amalga oshirilsa, uzoq muddat xizmat qiladigan yo‘llarni barpo etish, texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash xarajatlari kamaytirish, uglerod chiqindilarini qisqartirish hamda yanada barqaror asfalt sanoatini shakllantirishga hissa qo‘shadi.

Xurshida ERNAZAROVA,
“Zarafshon” muxbiri.

Suv kelgan xonadonda quvonch bor

Inson uchun suvning qadrini uning mushtoqi bo'lgan odam yaxshi biladi. Kundalik hayotimizda oddiy bir ehtiyojdek tuyuladigan toza ichimlik suvi ayrim xonadonlar uchun yillar davomida orzu bo'lib kelayotgani ham bor gap.

Payariq tumanidagi Farovon, Tohirshayx va Alisher Navoiy nomli mahallalarda yashovchi 480 xonadon ahli ham ana shu muammoni bir necha yildan buyon his qilib kelardi. Bugun esa bu xonadonlarga quvonch kirdi. Chunki 2300 nafardan ortiq aholi toza ichimlik suvi bilan ta'minlandi.

Ushbu xayrli ish Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan "Hurshida Enter Delux" korxonasi asoschilari - Baxtiyor Primov hamda o'g'illari Elyor, Sardorlarning tashabbusi va homiyligida amalga oshirildi.

Yangi suv inshootining ochilish marosimida "Yuksalish" harakati raisi Bobur Bekmurodov, tuman hokimining o'rinbosari E.Mamadiyrov, "Zarafshon" va



"Самаркандский вестник" gazetalar tahririyati bosh muharriri F.Toshev so'zga chiqib, tadbirkorlik faqat daromad topish vositasi emas, balki jamiyatdagi muhim muammolarni hal etishga hissa qo'shish imkoniyati ekanini qayd etdi. Primovlar oilasining ezuq tashabbusi ham buning yorqin namunasidir.

- Hozirda Toshkent shahri-

da yashasak-da, Payariq kindik qonimiz to'kilgan tuproq, - deydi Baxtiyor Primov. - Oilamiz bilan faqat daromad topish vositasi emas, balki jamiyatdagi muhim muammolarni hal etishga hissa qo'shish imkoniyati ekanini qayd etdi. Primovlar oilasining ezuq tashabbusi ham buning yorqin namunasidir.

Bugun Payariqdagi ana shu uch mahalladagi xonadonlarda suv tashish tashvishi ortda qoldi. Xonadoniga toza suv kirgan odamning ko'ngli ham yorishadi. Zero, xalq manfaatli yo'lida qilingan har bir ezuq ishning qadri bor. 2300 dan ortiq insonning hayotidagi bir muhim muammoning hal etilgani esa ana shu ezigulikning amaliy ifodasidir.

Husniddin XOLDOROV.



Joriy yil 27-iyul kuni Prezidentimiz boshchiligidagi yoqilg'i-energetika tarmog'idagi ustuvor masalalar bo'yicha o'tkazilgan videoselektorda elektr va gaz ta'minoti bilan bog'liq ishlarni "tumanbay" va "mahallabay" tashkil etish, hududlarning energiya iste'moli balansini shakllantirish, tarmoqlar va uskunalarni xatlovdan o'tkazish, kuz-qish mavsumiga puxta tayyorgarlik ko'rish, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning keng joriy etish bo'yicha vazifalar belgilangan edi.

Urgutda elektr va tabiiy gaz muammolari hal etilmoqda

Jumladan, Yangiyo'l tumani tajribasi asosida 13 ta tumanda ham ushbu yondashuvdagi namunaviy tizim yaratib, keyinchalik uni boshqa hududlarda joriy etish rejalashtirilgan.

Viloyatimizda Urgut tumanini namunaviy hududga aylantirish belgilangan. Hozirda tumanda "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ boshqaruvi raisi S.Isoqulov rahbarligida maxsus shtab faoliyat yuritilmoqda. U yerda tadbirkorlar va aholi bilan ochiq muloqotlar o'tkazilib, uzilishlar, quvvat yetishmasligi, gaz bosimining pasayishi, texnik shartlar olish va qarzdorlik bilan bog'liq murojaatlar o'rganilmoqda.

Hozirgacha tumandagi 85 ta transformator punktida mukammal va joriy ta'mirlash ishlari amalga oshirilib, 2,3 kilometr yangi elektr uzatish tarmog'i tortildi. Ta'minotni yaxshilash maqsadida 7 ta transformator, 9,3 kilometr SIP kabel, 100 ta avtomat o'chirgich, 30 ming dona yuqori va past kuchlanishli saqlagich, 1,3 ming dona izolyator hamda 2 tonna bo'yoq va boshqa maxsus elektr ehtiyoj qismlari ajratildi.

O'rganishlar davomida 225 nafar iste'molchining elektr ta'minoti tahlil qilinib, 9 ta noqonuniy foydalanish holati aniqlandi, - deydi "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ viloyat filiali bosh muhandisi o'rinbosari Shamsidin Boltaev. - Ko'rilgan choralar natijasida elektr tarmoqlaridagi yo'qotishlar 9,7 ming kVt-soatga yoki 8 foizga qisqartirildi. Shuningdek, tarmoqdagi qarzdorlik va hisob-kitob intizomi holati ham o'rganilib, ayrim kamchiliklar yuzasidan tegishli choralar ko'rildi. Ayni paytda 6,3 mingta aloqa uzilgan hisoblagichning 548 tasi hamda 13 ta konsentratorming ishlashi tiklandi. Natijada iste'molchilarning debitor qarzdorligi 1,1 milliard so'mga kamaytirildi.

Tabiiy va suyuqlirilgan gaz ta'minotini yaxshilash maq-



sadida 0,7 kilometr gaz tarmog'i va 1 ta gaz taqsimlash punkti ta'mirlandi. 22 ta gaz taqsimlash quurilmasi texnik ko'rikdan o'tkazildi, 30 ta reduktor o'rnatilib, ASKUG tizimiga mos kelmaydigan 97 ta hisoblagich almashtirildi. Natijada gaz tarmoqlaridagi yo'qotishlar 102,7 ming kub metrga yoki 5 foizga qisqartirildi.

Tumanidagi 120 ta mahallada istiqomat qiluvchi 87 mingdan ortiq iste'molchi suyuqlirilgan gaz bilan ta'minlangan. Mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida qo'shimcha 3 ta maxsus transport vositasi ajratilib, kunlik suyuqlirilgan gaz yetkazib berish hajmi 35 tonnadan 43 tonnagacha oshirildi.

Tumandagi 302 ta ijtimoiy soha muassasasi to'liq dastlabki xatlovdan o'tkazildi. Ayni vaqtda mutaxassislar tomonidan maktab, bog'cha, tibbiyot muassasalari va boshqa obyektlarning energiya samaradorligini baholash hamda ularni toifalash ishlari amalga oshirilmoqda. Shuningdek, yirik iste'molchilarni energiya auditidan o'tkazish ishlari ham boshlandi. Bu ishlar elektr va gaz ta'minoti barqarorligini oshirish, energiya yo'qotishlarini kamaytirish, kuz-qish mavsumiga puxta tayyorgarlik ko'rish hamda aholini energiya resurslari bilan sifatli ta'minlashga xizmat qiladi.

Dilmurod TO'XTAYEV.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada ikki marta - chorshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Ishtixon tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Isoqulov Shavkat Quroqboyevich notarial idorasida marhum Sattarov Norbek Pardayevichga (2025-yil 11-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Isoqulov Shavkat Quroqboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Ishtixon tumani Mitan shaharchasi, Amir Temur ko'chasi, 42-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Mamedova Djamilia Sirodjonovna (2025-yil 10-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 51-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Umid Rustamovich notarial idorasida marhum Xayitov O'ktam Axmedovichga (2025-yil 18-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Umid Rustamovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Turkiston ko'chasi, 62-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Ashirov Yusuf Xamrokulovichga (2025-yil 25-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Toyloq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarda marhum Aminov Nasriddinga (2022-yil 19-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toyloq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini so'raymiz.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasida marhum Xaydarov Rustam Muxtarovichga (2025-yil 17-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 154-"A" uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Donayev Nematga (2020-yil 13-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Fyodorova Svetlana Aleksandrovna (2026-yil 12-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan me-

rosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Baxronova Muxabbatga (2010-yil 23-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Kasimov Ziya-ga (2019-yil 15-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Ashurov Rauf-ga (1995-yil 10-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Dusatov Abdurasul Mamanovichga (2021-yil 4-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Sulaymanov Nurullaga (2023-yil 18-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayev Hamid Azimurodovich notarial idorasida marhum Umarov Norbayga (2011-yil 10-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayev Hamid Azimurodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'l ko'chasi, 9-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Gul-yamova Naziraga (2025-yil 16-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

“JOMBOY DON MAHSULOTLARI” AJ AKSIYADORLARI DIQQATIGA!

“Jomboy don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyati jamiyat aksiyadorlarining navbatdagi umumiy yig'ilishi 2026-yil 10-sentabr kuni (haftaning payshanba kuni) soat 11:00 da Jomboy tumani Jomboy shahri, Toshkent-Samarqand ko'chasi, 68-uy manzilida joylashgan “Jomboy don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyati ma'muriy binosi majlislar zalida o'tkazilishini ma'lum qiladi.

Jamiyat aksiyadorlarining navbatdagi umumiy yig'ilishi kun tartibida quyidagi masalalar muhokama qilinadi:

- Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining ishchi prezidiumi va sanoq komissiyasini saylash;
- Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamentini va kun tartibini tasdiqlash;
- Jamiyatning 2025-yil yakunlari bo'yicha yillik hisoboti va 2025-yilning asosiy natijalari hamda 2026-yilda amalga oshiriladigan dolzarb vazifalar to'g'risida boshqaruv raisining hisobotini tasdiqlash;
- Jamiyatning 2025-moliyaviy yil yakunlari bo'yicha buxgalteriya balansini va moliyaviy natijalarni to'g'risidagi hisoboti hamda foyda va zararlarini tasdiqlash;
- Jamiyatning 2025-yil moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari yuzasidan tashqi auditorlik tashkiloti tomonidan berilgan xulosani ko'rib chiqish;
- Jamiyatning 2025-yil yakuni bo'yicha olingan sof foydasini taqsimlash, dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi bo'yicha tavsiyalarni ma'qullash;
- Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolarini saylash;
- Jamiyatning boshqaruv raisligiga Sh.Axmedovni 3 yil mudatga tayinlash;
- Jamiyatning amaldagi boshqaruv a'zolari bilan tuzilgan mehnat shartnomasi muddatini uzaytirish;
- Jamiyatning 2025-yil yakuni bo'yicha korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalarini ko'rib chiqish;
- Jamiyatda 2026-yil yakuni bo'yicha auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditor xizmatini ko'rsatuvchi tashkilotlar taklifini ko'rib chiqish hamda ularga to'lanadigan xizmat xaqi miqdorini



belgilash;
12. Jamiyatning 2026-yil uchun mo'ljallangan biznes rejasini ko'rib chiqish;

13) “Shoxrux Mirzo MTM” MCHJning 2026-yil 12-avgustdagi 8-sonli xatiga asosan “Shoxrux Mirzo MTM” MCHJ va “Jomboy don mahsulotlari” AJ o'rtasida “Bulung'ur DQQM” dan foydalinish bo'yicha ijara shartnomasini tuzish masalasini ko'rib chiqish.

Jamiyat aksiyadorlarining navbatdagi umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning ro'yxatini tuzish hamda umumiy yig'ilish o'tkazilishi haqida xabarnoma

olish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reyestrini shakllantirish sanasi 2026-yil 14-avgust kuniga va umumiy yig'ilishga qatnashish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reyestrini shakllantirish sanasi 2026-yil 4-sentabr kuniga belgilangan.

Aksiyadorlarni ro'yxatga olish 2026-yil 10-sentabr kuni soat 10:00 dan 11:00 ga qadar davom etadi.

Yig'ilishga aksiyadorlar shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari va ularning vakillari amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlangan ishonchnomalar bilan kelishlari so'raladi.

Murojaat uchun telefon: +99891-536-57-73.

Jamiyatning elektron pochta manzili:

ajjomboydon@gmail.com

HURMATLI AKSIYADORLAR! Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi axborot va boshqa ma'lumotlarni jamiyat aksiyadorlari sifatli va tezkor ravishda yetkazilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi Qonuniga muvofiq elektron pochta orqali amalga oshirilishini inobatga olib, sizdan elektron pochta manzilingizni (Email.) taqdim etishingiz lozimligini ma'lum qilamiz.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Raximov Yusuf Munisovichga (2022-yil 29-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Toxirova Xolchuchukga (2016-yil 9-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Usmanov Komil Sultanovichga (2005-yil 30-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag'rikenglik ko'chasi, 4-uy.

BEKOR QILINADI

Samarqand shahridagi “SAB GOLDS” mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 312565524) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

“Urgut savdo kompleksi”dagi “Urgut mall” majmuasi 1-qavatida joylashgan Usmonova Mukaddas Baxrilloyevnaga tegishli 32-savdo do'konining kadastr hujjatlari (eski kadastr raqami: 14:14:07:02:08:2151) yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Til insonning bir-biri bilan muloqot qila olish zaruriyati natijasida vujudga kelgan. Shuning uchun til barcha zamonlarda odamlar o'rtasida, jamiyatda aloqa va o'zaro fikr almashishda muhim vosita sifatida xizmat qilib kelmoqda. Dunyoda 142 ta til oilasiga mansub besh mingdan ortiq til mavjud. Ular orasida o'zbek tili ham o'z o'rniga ega. Hozirgi kunda yer yuzidagi 50 milliondan ortiq aholi o'zbek tilida gaplashadi.

O'zga tilni o'rganamiz, o'zbek tilini-chi?

O'zbek tili O'zbekiston Respublikasining davlat tili bo'lib, mamlakatning milliy o'zligi, ma'naviy qadriyatlar va madaniy merosining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Davlat tilining huquqiy maqomi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda "Davlat tili haqida"gi Qonun bilan belgilab berilgan.

Davlat tilining jamiyat hayotidagi o'rnini mustahkamlash davlat boshqaruvi, ta'lim, ilm-fan, madaniyat, ommaviy axborot vositalari va boshqa sohalarida o'zbek tilining to'liq va samarali ko'llanilishini taqozo etadi. Shu bilan birga, davlat tilini rivojlantirish zamonaviy ilmiy yondashuvlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xalqaro tajribani keng joriy etishni talab etadi.

Bugun xorijliklar orasida ham o'zbek tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Shu sababli xorijiy fuqarolar uchun o'zbek tilini o'qitishga oid zamonaviy o'quv dasturlari, elektron platformalar va nutqiy ko'nikmalarni rivojlantiruvchi markazlarni tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Ingliz tili va IELTS tayyorlovi bo'yicha yaxshi obro'ga ega bo'lgan bir nechta yirik o'quv markazlari mavjud. Ammo nima uchun aynan o'zbek tilini o'rgatadigan bunday markazlar mavjud emas? Shunday markazlarni tashkil qilish vaqti kelmadimikan?

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat tilini rivojlantirish departamenti keng jamoatchilik uchun muntazam o'zbek tili kurslarini bevosita tashkil etmaydi. Uning asosiy vazifasi davlat tili siyosatini amalga oshirish, me'yoriy hujjatlar, loyihalar va dasturlarni muvofiqlashtirishdan iborat. Shu bois departament va O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi ko'magida davlat xizmatchilari uchun davlat tilida ish yuritish va nutq madaniyati bo'yicha malaka oshirish kurslari tashkil etilgan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi o'zbek tili, davlat tilida ish yuritish va nutq madaniyati bo'yicha kurslarni muntazam o'tkazib kelmoqda.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi Til ta'limi va konsalting markazi esa o'zbek tilini ham xorijiy fuqarolar, ham boshqa tinglovchilar uchun tashkil etgan. Universitetlar huzuridagi til markazlarida A1-B2 darajadagi o'zbek tili kurslari, ayrim xususiy til markazlari va individual o'qituvchilar tomonidan tashkil etilgan amaliy so'zlashuv kurslari ham mavjud.

Ammo o'zbek tilida o'qish, yozish, gapirish va eshitish ko'nikmalarini shakllantiruvchi markazlar tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunday markazlar xorijiy fuqarolar va O'zbekistonga tashrif buyuruvchi talabalar, mutaxassislar, tadbirkorlar hamda diplomatlarning o'zbek tilida erkin muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, o'qish, yozish, gapirish va eshitish kompetensiyalarini xalqaro standartlar asosida shakllantirishdan iborat bo'lishi lozim.

Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva va Farg'onada "Uzbek Language Center" milliy tarmog'ini yaratib, til bilan birga o'zbek madaniyati, tarixi va urf-odatlarini o'rgatilishini yo'lga qo'yish zarur.

Yirik shaharlarda hamda oliy ta'lim muassasalari huzurida "O'zbek tili nutqiy ko'nikmalar markazlari"ni bosqichma-bosqich tashkil etib, A1-C2 darajalar bo'yicha yagona o'quv dasturi ishlab chiqish, xalqaro tan olinadigan sertifikat tizimini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tajribasini boshqa oliy ta'lim muassasalarida ham tatbiq etish, xorijiy talabalar uchun qisqa muddatli intensiv kurslar tashkil etish zarur. Masalan, Samarqand davlat universitetida xorijiy talabalarga ingliz tilida dars o'tiladi, ammo nima uchun ular o'zbek tilini o'rganishmaydi?

Diplomatlar, investorlar, xorijiy tadbirkorlar, turistlar uchun 30-40 soatlik mutaxassislik terminologiyasi bo'yicha tezkor kurslarni tashkil qilish va reja-dasturlarini ishlab chiqish kerak.

"Speaking Club" (Suhbat klub)larni muntazam tashkil etish, o'zbek oilalari, talabalar va ko'ngillilar bilan til almashinuvi dasturlarini yo'lga qo'yish, madaniy tadbirlar, ekskursiyalar va teatr, muzey hamda tarixiy maskanlarga tashriflarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish, "Til kafesi" (Language Cafe) formatida norasmiy suhbat mashg'ulotlarini tashkil etish, mahalliy ko'ngillilar ishtirokida "Language Partner" (til hamkori) dasturini yo'lga qo'yish kabi masalalarni ham o'ylab ko'rish vaqti keldi.

Xorijliklarga o'zbek tilini o'qitishga ixtisoslashgan pedagoglarni tayyorlash, o'qituvchilar uchun muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etish, zamonaviy kommunikativ metodika va raqamli texnologiyalar bo'yicha treninglar o'tkazishni yo'lga qo'yish mumkin.

Har bir ko'nikma bo'yicha alohida baholash mezonlarini ishlab chiqish, yakuniy sinov asosida davlat namunasidagi yoki xalqaro talablarga mos sertifikat berish, sertifikatlarni ta'lim va mehnat bozorida tan olinadigan tizim bilan integratsiya qilish lozim.

Ma'lum muddatda xorijliklar uchun "Kitobxonlik soati", "Ifodali o'qish" va "Bir kitob - bir muhokama" tadbirlarini o'tkazish, o'qilgan matnlar asosida tahlil, savol-javob va ijodiy topshiriqlarni tashkil etish foydadan xoli bo'lmaydi.

"Notiqlik klubi" faoliyatini yo'lga qo'yib, bahs-munozara, taqdimot va nutq so'zlash mashg'ulotlarini muntazam o'tkazish, rolli o'yinlar, sahna ko'rinishlari va intervyu mashqlaridan foydalanish, omma oldida erkin va ravon nutq so'zlash ko'nikmalarini rivojlantirsa bo'ladi.

Audio va video materiallar, elektron darsliklar hamda interaktiv mashqlarni jamlagan raqamli platformani yaratish, mobil ilovalar va sun'iy intellekt asosidagi nutqni baholash vositalaridan foydalanish, onlayn va gibrid ta'lim formatlarini joriy etish zarur.

Mazkur masalalarni tizimli yo'lga qo'ya olsak, xorijiy fuqarolarning o'zbek tilida kundalik va kasbiy muloqot qilish kompetensiyasi rivojlanadi hamda bu orqali o'zbek tilining xalqaro nafuzi va o'rganilish ko'lamini kengayadi. Yurtimizga kelgan xorijlik talabalar va mutaxassislarning O'zbekiston jamiyatiga til orqali moslashuvi osonlashadi. Ta'lim, turizm, investitsiya va madaniy almashinuv sohalarida o'zbek tilidan foydalanish darajasi oshadi. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish bo'yicha zamonaviy va barqaror ta'lim infratuzilmasi shakllanadi.

Dilbar O'RINBOYEVA,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti
o'zbek tilshunosligi kafedrasini professori.

Farzandingizning

YUTUG'I SIZNIKI,

aybi jamiyatnikimi?



Mulohaza uchun mavzu

Farzandingizning yutug'i bilan faxrlanmaydigan ota-ona topilmasa kerak. Bolasi yaxshi o'qisa, odobli bo'lsa, tanlov yoki musobaqada g'olib chiqsa, ko'pchilik buni avvalo o'z tarbiyasining mevasi deb biladi. Bu tabiiy. Axir bir farzandni voyaga yetkazish uchun yillar, mehnat, mehnat va sabr kerak bo'ladi-da.

Ammo shu farzand xato qilsa-chi? Bunday holatda ko'pincha munosabat o'zgaradi: "Hozirgi yoshlar boshqacha, aytganni qilmaydi", "Telefon yoshlarni buzayпти", "Atrofida do'stlari yomon ekan", "Maktab yaxshi qaramagan-da", "Ko'chaning ta'siri kuchli bo'ldi"... Umuman, shu kabi bahonalar birin-ketin paydo bo'ladi. Go'yo kechagina "Mening tarbiyamning mevasi", deb maqtalgan farzand endi butunlay boshqalar tarbiyalagan insonga aylanib qolgandek. Xo'sh, nega shunday? Nega yutuqqa kelganda «mening farzandim» deb ur'urulanamiz-u, kamchiligi kelganda mas'uliyatni boshqalar zimmasiga yuklaymiz? Aslida tarbiya degani faqat quvonchli kunlarda emas, qiyin paytlarda ham mas'uliyatni zimmasiga olish emasmi?

O'qituvchi tanishim bilan gaplashganimda, dardini dasturxon qilib qoldi:

- Bitta sinfda ikki o'quvchi o'qirdi. Ikkalasi ham bir xil darsga qatnadi, men kabi o'qituvchilardan ta'lim oldi. Ulardan biri fanlarni to'liq o'zlashtirib, olimpiadalarda g'olib bo'ldi. Qarangki, uning yutug'i o'ta-onasining faxriga aylandi. Ammo ikkinchi o'quvchi darslarda yaxshi qatnashmay, bir-ikki marta kichik qoidabuzarliklarni qildi. Shunda nima bo'ldi deng: hamma joyda "Maktab tarbiya bermabdi", degan e'tirozlar yangradi, o'qituvchilarning boshi egildi.

Tanishimining gapida jon bor. Haqiqatan ham maktab va o'qituvchilarning asosiy vazifasi bilim berish. Muhitni jamiyat yaratadi. Lekin insonning birinchi tarbiya maktabi, bu - oilasi. Birinchi ustozlari esa ota-ona. Bola eng avvalo, kimdan o'rnak oladi? O'qituvchisidanmi yoki har kuni ko'rib, har bir harakatini kuzatib yuradigan ota-onasidan?

Endi o'zingiz ayting: agar ota kitob o'qishni tavsiya qilib, o'zi doim telefonga berilsa, farzand qaysi yo'lni tanlaydi? Agar

ona boshqalarga hurmat ko'rsatmay turib, bolasidan xushmuomalalik talab qilsa, bu tarbiya qanchalik samara beradi? Chunki bola nasihatdan ko'ra namunadan ko'proq o'rganadi. U kattalarning aytganini emas, qilganini takrorlaydi.

Shu o'rinda ko'pchilikka tanish bir hikmatni eslamoqchiman. Donishmandlardan biriga "Farzandimni qachon tarbiyalashni boshlay?", deb savol berishganda u "Bolangiz necha yoshda?", deb so'ragan. "Besh yoshda", desa, "Demak, siz besh yilga kechikibsiz", degan ekan. Bu hikmatning ma'nosi oddiy: tarbiya farzand tug'ilganda emas, ota-onaning o'zidan boshlanadi.

Endi jamiyat yaratgan muhit haqida ikki og'iz. To'g'ri, muhitning ta'sirini inkor qilib bo'lmaydi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, tengdoshlar, ko'cha muhiti - bularning barchasi bolaning qarashlariga ta'sir qiladi. Lekin agar insonni faqat muhit tarbiyalaganida, bir mahallada o'sgan barcha bolalar bir xil inson bo'lishi kerak edi. Hayot esa buning aksini ko'rsatmoqda. Demak, muhit muhim. Ammo hal qiluvchi omil - oila.

Endi o'zimiz haqimizda o'ylab ko'raylik. Farzandingiz yuqori natijaga erisha, buni g'urur bilan yaqinlaringizga aytasiz, hatto bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda bo'lishasiz. Agar u yolg'on gapirsa, qoidabuzarlik qilsa yoki noto'g'ri yo'lga kirsach-chi? O'sha paytda ham xuddi shunday ochiqlik bilan "Bu yerda mening ham kamchiligidir bor", deya olamizmi? Balki tarbiya haqidagi eng muhim savollarni boshqalarga emas, avvalo, o'zimizga berishimiz kerakdir.

Men farzandim bilan yetarlicha suhbatlashyapmanmi? Uning dardini eshitishga vaqt ajratyapmanmi? U meni ishonadigan inson deb biladimi? Men unga aytayotgan gaplarimga o'zim amal qilyapmanmi? Ana shu savollarga xolis javob topilsa, tarbiyadagi ko'plab muammolarning yechimi ham topiladi.

Demoqchi bo'lganimiz, farzandni tarbiyalash mash-aqqatli yo'l. Bu yo'lga quvonch ham, tashvish ham, yutuq ham, xato ham bo'ladi. Muhimi, farzandning muvaffaqiyatini qanday quvonch bilan qabul qilsak, uning kamchiligini ham tarbiyani qayta ko'rib chiqishga undaydigan saboq sifatida qabul qila bilishdir. Zero, farzandning yutug'i ota-ona baxti. Ammo uning xatolari aybdor qidirish uchun emas, avvalo, o'z mas'uliyatimizni yana bir bor his qilish uchun saboq bo'lishi kerak.

Akram HAYDAROV.

School 21: bepul IT ta'lim, xalqaro kompaniyalar bilan ishlash imkoniyati

Samarqand shahridagi School 21 raqamli texnologiyalar maktabi 17 yoshdan oshgan yigit-qizlarga IT sohasida talab yuqori bo'lgan kasblarni bepul o'rgatib kelmoqda.

Loyiha raqamli texnologiyalar vazirligi ko'magida amalga oshirilmoqda. Maktabning birinchi kampusi 2023-yil 21-dekabr kuni Samarqand shahrida ishga tushirilgan bo'lib, bugungi kunda Samarqand va Toshkent shaharlarida faoliyat yuritmoqda.

Maktabda an'anaviy darslar, ma'ruzalar yoki baholash tizimi mavjud emas, ta'lim to'liq amaliy loyihalar hamda «bir-birini o'qitish» (peer-to-peer) usuli asosida tashkil etilgan. Shuningdek, kampuslar 24/7 rejimida ishlashi tufayli ishtirokchilar o'zlari uchun qulay vaqtda ta'lim olish imkoniyatiga ega. Ta'lim muddati tanlangan yo'nalish va o'qishga ajratilgan vaqtga bog'liq. Dasturchi yo'nalishlari odatda 1,5 yildan 3 yilgacha davom etadi. Maktabni tugatish uchun uch oylik qat'iy amaliyot ham mavjud.

Bugungi kunga qadar Samarqand va Toshkent kampuslarida tahsil olish istagidagi yoshlardan 120 mingdan ortiq ariza kelib tushgan, - deydi School 21 Samarqand kampusi direktori Bobomurod Toshboyev. - 11 mingdan ziyod nomzod saralash bosqichi - «hovuz»da ishtirok etgan bo'lsa, 2,5 mingdan ortiq ishtirokchi asosiy ta'lim dasturini muvaffaqiyatli davom ettirmoqda. Ayni vaqtda muassasa Yevropa va Osiyodagi mahalliy hamda xalqaro kompaniyalarni o'zida qamrab olgan yuzga yaqin tashkilotlardan iborat hamkorlik tarmog'ini

rivojlantirmoqda. Maktabimizga navbatdagi nomzodlarni saralash shu yilning 17-avgust kuni boshlanadi va unda ishtirok etish uchun arizalar 13-avgustga qadar qabul qilinadi.

To'rt ming kvadrat metr maydonda joylashgan Samarqand kampusida 500 ta zamonaviy ish o'rnini, to'rtta o'quv klasteri, 150 o'rinni konferensiya zali, kovorking va muzokara xonalari, sport zali, dam olish hududlari, ovqatlanish joylari hamda boshqa hududlardan kelgan ishtirokchilar uchun 180 o'rinni yotoqxona tashkil etilgan.

- School 21 da C, C++, Java, Python, Go, SQL kabi dasturlash tillari bilan bir qatorda DevOps, kiberxavfsizlik, QA muhandisligi, Data Science, UX/UI dizayn, tizim va biznes tahlili, bioinformatics hamda boshqa zamonaviy IT yo'nalishlarida ham ta'lim olish imkoniyati yaratilgan, - deydi urgutlik Obidjon Aliqulov. - Men o'qish davomida C, C++, DevOps hamda ma'lumotlar bazalari kabi yo'nalishlarda bilim va amaliy tajribaga ega bo'ladim. BetterWeb yapon kompaniyasida uch oy amaliyot o'tadim va shu kompaniyaga ishga qabul qilindim. Men yaratgan loyiha yapon tilida bo'lib, nuroniylarni parvarishlashga mo'ljallangan. Ya'ni, platformada qariyalar uyularda faoliyat yuritayotgan xodimlar uchun nuroniylarning kun davomida qanday ovqatlanishidan dam olishigacha bo'lgan jarayon raqamli tarzda boshqariladi. Ayni paytda imkoniyati cheklangan bolalarni parvarishlash bo'yicha ham raqamli platforma yaratish ustida ishlayapman.

Fazliddin RO'ZIBOYEVA.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 271 nusxada chop etildi. Buyurtma 316. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

D.TO'XTAYEV.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda

